

*O‘zMU, Ramazonova Setora*

*2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Aholining turli toifalari bilan ijtimoiy ish bu- ijtimoiy ishning turli guruhlari, ya’ni yoshlar, keksalar, nogironligi bor shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum, kam ta’minlanganlar va aholining boshqa ehtiyojmand toifalari bilan amalga oshirilishini o‘rganadi. Ushbu maqolada ijtimoiy ishchilarning har bir guruh uchun maxsus yondashuvlar va metodlarni qanday qo‘llashlarini, shuningdek har bir toifaning o‘ziga xos muommolarini aniqlash va ularga samarali yordam ko‘rsatishning ahamiyatini yoritadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Nogironligi bor shaxslar, muommo, ijtimoiy ishchi, yoshlar, integratsiya, ijtimoiy, inklyuziv, stereotip, jamiyat, ijtimoiy ko‘nikma, moslashuv, metod.*

Ijtimoiy ish – bu ijtimoiy adolatni ta’minlash, inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyatdir. Ijtimoiy ishchilar ijtimoiy himoya, ta’lim, sog‘liqni saqlash, yuridik yordam va boshqa sohalarda yordam ko‘rsatishadi. Ijtimoiy ishchilar jamiyatning turli toifalariga, jumladan, nogironligi bor shaxslar qariyalar, bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va boshqa yordamga muhtoj guruhlar bilan ishlaydilar.

Ijtimoiy ishning asosiy maqsadi — bu guruhlariga moslashuvchan yordam ko‘rsatish, ularni jamiyatda to‘liq integratsiya qilish va ularning farovonligini oshirishdir. Shuning uchun ijtimoiy ishchilarning har bir toifa bilan ishlashda o‘ziga xos yondashuvlari, usullari va metodologiyalari mavjud. Ushbu maqolada, ijtimoiy ishning aholi turli toifalariga qaratilgan yondashuvlarini tahlil qilish, ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda samarali ijtimoiy yordamni ta’minlashning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Ularning ayrim toifalarini ko‘rib chiqamiz.

1. Nogironligi bor shaxslar bilan ijtimoiy ish.

Nogironligi bor shaxslar jamiyatning himoyasiz va zaif qatlamini tashkil etadi. Ular turli sohalarda, masalan, ta’lim, mehnat bozori, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy aloqalar va boshqa kundalik faoliyatlarda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ijtimoiy ish nogironligi bor shaxslarga yordam berishda nafaqat ularning jismoniy ehtiyojlarini qondirish, balki ruhiy va emotsional qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy ishchilar nogironligi bor shaxslar bilan ishlashda shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularning jamiyatga integratsiya qilishini, teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlashga intilishadi. Mamlakatimizda ham nogironligi bor shaxslarni huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qator qonun va qonunosti hujjatlar ishlab chiqilgan. 2020-yil 22-iyulda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan va Senat tomonidan 2020-yil 11-sentyabrda ma’qullangan.<sup>136</sup> Qonunda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish

<sup>136</sup> “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun.22.07.2020. URL: <https://lex.uz/docs/5049511>

# “ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

belgilangan. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- Nogironligi bo‘lgan shaxslarning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ko‘rish;
- Nogironligi bo‘lgan shaxslarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
- Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari va imkoniyatlari tengligini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ta‘minlash;
- Nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish;
- Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish masalalari bo‘yicha jamiyatda ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;
- Nogironligi bo‘lgan shaxslarning inklyuziv ta‘lim olish imkoniyatini ta‘minlashdan iborat.

Ular bilan ijtimoiy ish olib borishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin.

## 1. Ta'lim va malaka oshirish:

Nogiron shaxslar ta'lim olishda ko‘pincha cheklovlarga duch keladilar. Ijtimoiy ishchilar nogironlarning ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish, maxsus o‘quv dasturlari va yordamchilarni ta'minlash orqali ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu ularning jamiyatda teng huquqli a'zo bo‘lishini ta'minlashda muhim omildir.

## 2. Jamiyatda integratsiya qilish:

Nogiron shaxslarni jamiyatga to‘liq integratsiya qilish uchun ijtimoiy ishchilar turli ijtimoiy faoliyatlar, sport, madaniyat va boshqa tadbirlarda ishtirok etishlarini rag‘batlantiradilar. Bu, ularning o‘zini jamiyatning teng huquqli a‘zosi sifatida his qilishlariga yordam beradi va izolyatsiyani kamaytiradi.

## 3. Psixologik qo‘llab-quvvatlash:

Nogironligi bor shaxslar ko‘pincha o‘zlarini jamiyatdan ajralib qolgan yoki kamchiliklari mavjud deb his qilishadi. Ijtimoiy ishchilar ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini tiklash, ruhiy salomatlikni yaxshilash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratishda yordam beradilar. Shuning uchun, nogironlarga qarshi stereotiplarni yengib, ularning imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatda yanada inklyuziv va teng imkoniyatlarga ega bo‘lgan muhit yaratish zarur.

## 2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ijtimoiy ish.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlash ijtimoiy ishchilarning muhim vazifalaridan biridir. Bolalar jamiyatning kelajagi bo‘lib, ularning xavfsizligi, farovonligi va rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy barqarorligi uchun juda muhimdir.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar – O‘zbekiston Respublikasi „Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida“gi qonunining 3-moddasiga muvofiq<sup>137</sup>, yuzaga kelgan sabablar tufayli og‘ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo‘llab – quvvatlashga muhtoj bolalar, shu jumladan: nogiron bolalar,

<sup>137</sup> „Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida“gi qonun.23.11.2007.URL: <https://lex.uz/docs/-1297315>

jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar, yetim bolalar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, ixtisoslashtirilgan bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalar, muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan bolalar, kam ta‘minlangan oilalardagi bolalar, zo‘ravonlik va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalarni keltirishimiz mumkin.

Ushbu qonunda bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solish keltirilgan. Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning sonini kamaytirish va ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat siyosati amalga oshirilmoqda va ularning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash;
- bolaning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish;
- bolaning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- bolaning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
- bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta‘minlash;
- bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashdan iborat<sup>138</sup>.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ijtimoiy ish olib borishda ijtimoiy xodimning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. Psixologik yordam: Bolalar ruhiy holatini baholash, ularni qo‘llab-quvvatlash va stressli vaziyatlarga moslashishga yordam berish.
2. Oila bilan ishlash: Agar bola o‘z oilasida zarar ko‘rayotgan bo‘lsa, oilaviy munosabatlarni yaxshilash yoki kerakli holatlarda bola huquqlarini himoya qilish.
3. Ta‘lim va sog‘liqni saqlash: Bolalarga ta‘lim olish imkoniyatlarini ta‘minlash, sog‘liqni saqlash xizmatlari bilan bog‘lanish va kerakli resurslarni ko‘rsatish.
4. Huquqiy yordam: Bola huquqlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy himoya tizimlaridan foydalanishlari uchun yo‘naltirish.

Ijtimoiy ishchilar bolalar bilan ishlashda ularning hissiy va jismoniy holatini, ijtimoiy o‘rganish va rivojlanish ehtiyojlarini inobatga olgan holda faoliyat yuritishadi. Shuningdek, ular turli ijtimoiy muassasalar, ta‘lim tizimi va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, aholining turli toifalar bilan ijtimoiy ish olib borish- bu nafaqat yordam berish, balki ijtimoiy adolatni ta‘minlash, odamlarning huquqlarini himoya qilish va ular uchun yaxshiroq yashash sharoitlarini yaratish jarayonidir. Ijtimoiy ishchilar o‘z faoliyatida ijtimoiy tizimni mustahkamlash, jamiyatdagi tengsizlikni kamaytirish va har bir shaxsning o‘z salohiyatini to‘liq amalga oshirishiga imkon yaratishga harakat qiladilar. Shuning uchun, ijtimoiy ish nafaqat shaxsiy yordam ko‘rsatish, balki ijtimoiy rivojlanishning muhim qismidir.

<sup>138</sup> <https://lex.uz/docs/-1297315>

# “ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

---

30-Aprel, 2026-yil

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun.22.07.2020.  
URL: <https://lex.uz/docs/5049511>
2. ”Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun.23.11.2007.URL:  
<https://lex.uz/docs/-1297315>
3. Toychiyev.N.(2009).”Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar”.O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi.Toshkent: ”Adolat”nashriyoti.
4. <https://lex.uz/docs/-1297315>